

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**«MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT» KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida  
UDK:658.1:657.1

**MUXIDDINOV G‘ULOM ERGASH O‘G‘LI**

**ISHCHI VA XIZMATCHILAR HAMDA STIPENDIYA  
OLUVCHILAR BILAN HISOB-KITOB-LAR HISOBI VA  
NAZORATI**

**70410102 – “Audit” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)  
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:**

**PhD, dotsent Ismoilova M.M.**

**TOSHKENT–2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


7-sonli bayonnoma «25» aprel 2023-y.

Kafedra mudiri:  
i.f.d., professor N.Sh.Xajimuratov

  
imzo


18.05.2023 y  
sana

Ilmiy rahbar:  
Phd., dotsent M.M.Ismoilov

  
imzo

23.05.2023 y  
sana

Tinglovchi: G'.E.Muxiddinov

  
imzo

17.05.2023 y  
sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil

«18» may da

№ MUA-01/9 raqami bilan ro'yxatga olindi.

## ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Budjet tashkilotlarida ichki auditni o'tkazish, uslubiy muammolarini o'rganishga keng e'tibor qaratish, markazlashgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Biroq mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan Ishchi va xizmatchilar hamda stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar hisobi va nazorati masalalari kompleks tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat dissertatsiya ishida o'rganilgan muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Budjet tashkilotlari, stipendiya hisobi, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati departamenti, audit, ichki audit, ichki audit xizmat, budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi.*

## ABSTRACT

Today, it is desirable to conduct internal audits in budget organizations, to pay attention to the study of methodological problems, to improve the activities of the centralized internal audit and financial control service, and the changes in the current regulatory and legal documents in accordance with the conditions of modernization of the economy indicate the need to conduct in-depth scientific research in this field.

However, despite the research and theoretical research carried out within the framework of this topic, the issues of calculation and control of accounts with workers and employees and recipients of scholarships have not been comprehensively studied. In this case, the problems studied in the dissertation work and the scientific proposals and practical recommendations developed for their elimination are given.

**Key words:** Budget organizations, scholarship accounting, financial control, state financial control department, audit, work audit, work audit service, accounting of budget organizations.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	
Mundarija .....	3
Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati .....	6
<b>I BOB. KIRISH .....</b>	<b>7</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....	8
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	9
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti .....	9
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati .....	10
1.6. Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi .....	10
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>	<b>10</b>
2.1. Ilmiy–nazariy adabiyotlar sharhi .....	12
2.2. Ilmiy–amaliy adabiyotlar sharhi .....	12
<b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI .....</b>	<b>15</b>
3.1. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar .....	27
3.2. Tadqiqotning ma'lumot manbalari .....	27
<b>IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI .....</b>	<b>27</b>
4.1. Ishchi va xizmatchilar hamda stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar nazoratining ahamiyati va zarurligi.....	28
4.2. Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit va ichki nazoratni tashkil etilishi .....	28
4.3. Budget tashkilotlarida markazlashgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tomonidan nazorat o'tkazilishi.....	47
<b>V BOB. XULOSA .....</b>	<b>50</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	58
5.2. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar....	58
5.3. Tadqiqot natijalarining amaliyotga egishliligi va natijalarning amaliy ahamiyati.....	60
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>61</b>
<b>ILOVA.....</b>	<b>63</b>

## I BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahonda bugungi kunda rivojlanib borayotgan integratsion jarayonlar, iqtisodiyotni globallasuvi va innovatsion jadallik har qanday tizimni zamonaviy jarayonga mos ravishda takomillashtirishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiyotini muhim qismini tashkil etadigan Budjet mablag‘larini oqilona va rejali sarflanishi yuzasidan Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish orqali nomuvofiqliklarni va maqsadsiz xarajatlarni qisqartirishga imkon yaratiladi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati tashkil etilgan. Xorijiy mamlakatlardan ichki auditga ega bo‘lganlari o‘zlarining funksiyalarini muayyan qonunlar yoki qoidalarga muvofiq o‘rnatgan. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini kampaniyali tashkil etish ko‘p jihatdan xalqaro talablarga mos bo‘lgan ichki audit standartlaridan keng foydalanish zaruriyatini taqozo qiladi.

Jahon amaliyotida Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatining uslubiy asoslarini takomillashtirilishi borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, budjet tashkilotlari ichki audit xizmati faoliyatidagi nazorat tartibi, risklarni baholash va minimallashtirish, tashkilotning ish samaradorligini oshirish Budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, korrupsion holatlarni oldini olish, xalqaro ichki audit standartlari asosida nazoratni tashkil etish masalalari ilmiy o‘rganilmoqda. Xususan, bu mavzu bo‘yicha xususiy sektorda ilmiy ma‘lumotlar va nashrlar yetarlicha shakllantirilgan, ammo Budjet tashkilotlarida aynan markazlashtirilgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari uslubiyoti yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar hali ko‘p izlanishlar olib borish lozimligini taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2020-yil 31-yanvardagi 59-son “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga to‘lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 21-avgustdagi PQ